AKMEOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Anarbayeva Muhlisa Shokirjon qizi
Guliston davlat pedagogika insituti 1-kurs magistranti
Email: shokirjonovamuhlisa@gmail.com

Annotatsiya: Akmeologik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatini rivojlantirishda yuqori natija beradi. Agarda: akmeologik rivojlanish usullari muammosining o‘rganilganlik darajasi tahlil etilsa; bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishning pedagogik-psixologik jihatlari o‘rganilsa; bo‘lajak o‘qituvchilarni akmeologik rivojlanishi samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlansa; tizimli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish modeli ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etish.

Kalit so‘zlar: Akmeologik yondashuv, gumanistik aksiologiya, kreativ yondashuv, refleksiv yondashuv falsafiy, pedagogik kuzatish, pedagogik, metodik hamda kasbiy ta’lim modellashtirish; psixologik; pedagogik tajriba; shaxs; o‘z-o‘zini anglash.

Abstract: Based on acmeological approaches, it gives high results in the professional development of future teachers. If: the degree of study of the problem of acmeological development methods is analyzed; if the pedagogical and psychological aspects of professional adaptation of future teachers are studied; if the pedagogical conditions ensuring the effectiveness of acmeological development of future teachers are determined; based on a systematic approach, a model of professional adaptation of future teachers was developed and put into practice.

Key words: Acmeological approach, humanistic axiology, creative approach, reflexive approach, philosophical, pedagogical observation, pedagogical, methodical and professional education modeling; psychological; pedagogical experience; person; self-awareness.

Har qanday sohada yoki kasbda shaxs o‘z potensialini rivojlantirishi jamiyatda va undagi turli tuman vaziyatlarda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi muhim sanaladi. Shaxs nazariyasida pedagogika va psixologiya tarmoqlarida shaxsning o‘ziga hos kasbiy malakalari shakllanishiga doir qarashlar mavjud.

Oliy ta’lim muassasasida innovatsion faoliyatning sub’ekti o‘qituvchi hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga ega bo‘ladi va o‘qituvchining innovatsion faoliyatiga nisbatan yondoshuvlari quyidagicha talqin qilinadi: Gumanistik aksiologiya – (aksiologiyaga insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan -bir maqsadi sifatida qaraydi) Innovasion faoliyatga aksilogik yondoshuv insonning o‘zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar majmuasini anglatadi. Akmeologik yondashuv - akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan yetuk, eng yaxshi davr degan manolarni bildiradi. [redacted]reativ yondashuv – (bu termin AQShda XX asrning 60-yillarda paydo bo‘ldi) individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatilini bildiradi.[redacted]efleksiv yondashuv - (lotincha reflixio - ortga qaytish) subektning o‘z (ichki) psixik tuyg‘u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi. Endi innovatsion faoliyatdagi akmeologik yondashuvga e’tibor qaratsak. O‘qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. "Akmeologiya" tushunchasi ("akme" - qadimgi yunon tilidan tarjima qilingan - eng yuqori nuqta, gullash, yetuklik, eng yaxshi vaqt)ni ilmiy atamashunoslikka 1928 yilda N.A.Ribnikov kiritdi, bu yosh davrlari psixologiyasining yetuklik davrini nazarda tutadi. Akmeologiyaning predmeti kasbiy yuksalish, mutaxassislarning ijodiy uzoq umr ko‘rishiga, shuningdek, kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirishga, ularning faoliyatini takomillashtirish va tuzatishga yordam beradigan sub'ektiv va ob'ektiv omillardir. Ob'ektiv omillar olingan ta'lim sifatini o‘z ichiga oladi. Subyektiv omillarga insonning mahorati va qobiliyati, uning mas'uliyati, kompetensiyasi, muammolarni samarali hal qilish ko‘nikmasi kiradi. Kasbiy yuksaklikka erishishning eng muhim omillari: iste'dod, qobiliyat, talant, oilaviy tarbiya sharoitlari, ta'lim muassasalari va o‘zining faolligidir.Bugungi kunda yoshlar o‘z mutaxassisliklari asosida ishga kirib kelmoqdalar lekin ularning malaka ko‘rsatkichlari, bilimlari, iqtidori mos ravishda yuksalishi uchun uzoq muddatli amaliy jarayonlarni talab etadi.

Akmeologiyaning inson haqidagi mavjud fanlarga nisbatan ustunligi shundaki, u insonning butun hayot va professional yo‘lini o‘rganadi. Shu bilan birga, akmeologiya kasbiy faoliyatni takomillashtirish va tuzatish muammolarini o‘rganadi. Akmeologiya insonning professionallik cho‘qqilariga o‘zi erishadi degan qarashni nazarda tutadi. Bu borada Xatima Shayxova: «Akmeologiya — zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog‘onaga ko‘tarilishidagi turli jihatlarini o‘rganishdir.

Akmeologiyaning mazmun-mohiyati — insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviyhuquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o‘rganishdan iborat», deydi. Akmeologiyada quyidagi kategoriyalarga e’tibor qaratiladi: ijodiy individuallik, o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish, o‘z-o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish Akmeologiyaning ushbu tushunchalari innovatsion pedagogikaning asosiy negizini tashkil etadi. Ijodiy individuallik professionallikning eng yuqori xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z ichiga olgan shaxsiy kategoriyalar: [redacted]tellektual va ijodiy tashabbus;

intellektual qobiliyat, bilimlarning kengligi va chuqurligi;

qarama-qarshiliklarga tayyorlik, ijodiy ikkilanishlarga moyillik, ichki yaratuvchilik kurashni o‘zida sinash qobiliyati;

axborotlarga tashnalik, proffessionalizm, bilimga chanqoqlik V.A. Slastenin ijodiy individualizmni ro‘yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;

pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;

samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;

shaxsning o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘zini o‘zi namoyon qila olishi asosida o‘z rivojlanishini ta’minlash.

Malakali mutaxassis: berilgan mehnat turiga ijtimoiy mas’uliyat darajasiga, uning jarayoni va natijalariga qarab kasbga yaroqliligi, psihologik tayyorgarligini aniqlash orqali mehnat faoliyatini amalga oshirishdagi imkoniyat va natijalarini belgilash dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Refleksli — innovatsion potensialni mahorat darajasigacha takomillashtirish va innovatsiyalarni ijtimoiy ahamiyatini baholashni, sarf etilgan intilishlarni hamda uni amalga oshirish yutuqlari asosida belgilash orqali o‘rganilmoqda. Reflektiv tomoniga ko‘ra: (rivojlanayotgan «Men» sifatidagi shaxsni o‘zligini anglash va mehnat faoliyati jarayonida kommunikatsiya bo‘yicha hamkorlarini tushuna bilishi bilan bog‘liq) tizim yaratuvchi faktor hisoblanib, insonni kasbiylashuvini belgilashda akmeologik aspektlarning optimal o‘zaro harakatini ta’minlaydi.

Akmeologiyaning tadqiqot obyekti - bu akme shaxs ya’ni yetuk shaxs, obyektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasb faoliyatining va ijodiy faoliyatning metodologik,texnologik hamda gumanitar jihatlarini o ‘rganish jarayonida jamiyat rivojida kasb-hunar moddiy, ma'naviy jihatlari bilan bog‘liq akmeologik muammolami aniqlaydi. Bugungi kunda bozor munosabatlarining rivojlanishida yangi kasb-hunarlarni shakllantirish, davr talabiga mos keluvchi yetuk kadrlar yetishtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Globalizatsiya jarayonlariga ijodiy kompleks yondoshish, kasbkorlik madaniyati, komillik va mukammallik haqida alloma va mutafakkirlaming qarashlarini tahlil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos jihatlami va zamonaviy tajribalami chuqur egallash, texnika, texnologiya va axborot madaniyatini o ‘zlashtirish masalalari ham akmeologiyaning obyektlaridan biriga aylanishi mumkin.Inson qobiliyatlari chek chegara bilmaydi aslida, ammo bu chegarasiz manbaa shunchaki paydo bo‘lib qoladigan topilma emas, balki bunga uzoq mehnat bilim olish jarayonlari hamda takomillashib boradigan akmeologik qobiliyatlar ya’ni insonning ma’lum soha yoki yo‘nalishlariga fan, san’at, sport, kasb umuman olganda inson faoliyat sohalarining ham jismoniy ham manaviy tomonlarini o‘ziga qamrab oladi.

Akmeologik yondashuv yordamida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini takomilashtirishni turli qirralarini hisobga olgan holda, malakali mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini ochish va rivojlantirish muammolari oldingi o‘ringa chiqib bormoqda. Bu borada ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsiga e’tibor katta. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy moslashishini akmeologik jihatdan tadqiq qilinsa bugungi zamon talabiga mos, biroq avvalgi chuqur bilimlarga ham ega yetuk o‘qituvchi shaxsini, o‘z ishining mutaxassisi etib yetishtirish jarayoni juda murakkab pedagogik va psixologik jarayon hisoblanadi.

O‘z-o‘zini anglashning individual usuli va varianti g‘oyasi (K.A.AbulxanovaSlavskaya, A.A.Derkach va boshqalar). Olingan vaqtinchalik kompetensiyalar va shaxs tomonidanerishilgan vaqtinchalik malaka darajasi ko‘p jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarning individual psixologik xususiyatlari va xususiyatlarining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. A.A.Derkachning fikricha akmeologiyada modelga murojaat qilish zarurati bizga psixologik hodisani tasavvur qilish, uning muhim xususiyatlarini, tarkibiy xususiyatlarini, mexanizmlarini, shakllanish darajalarini ochib berishga imkon beradi.

Reflektiv tomoniga ko‘ra: (rivojlanayotgan «Men» sifatidagi shaxsni o‘zligini anglash va mehnat faoliyati jarayonida kommunikatsiya bo‘yicha hamkorlarini tushuna bilishi bilan bog‘liq)tizim yaratuvchi faktor hisoblanib, insonni kasbiylashuvini belgilashda akmeologik aspektlarningoptimal o‘zaro harakatini ta’minlaydi.

Maktab yoshidagi bolaga, yosh avlodga va boshqa tinglovchiga bilim berishda o‘z kasbiy mahorati yuksak akmeshaxs bo‘la oladigan o‘qituvchi o‘zining tasirigagi tinglovchini to‘la jaalb eta olishi hamda uni bilim olish va hayotiy ko‘nikmalarga tayyorlashi tayin. Akmeologik ta’lim texnologiyalarini o‘qitish amaliyotida tatbiq etish, ta’lim va ijodni rivojlanishini refleksli-psixologik konsepsiyasi asosida malakali mutaxassislarni tayyorlashda akmeologik yondashuvlarni tuzilmaviy tomonlarini hisobga olib borish lozim.

Darhaqiqat, Abdulla Avloniy o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga keng ta’rif berib: tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ya’ni axloqli, odobli, bilimdonligi, ziyrakligi, topqirligi, farosatliligi, aql-zakovatliligi ta’lim- tarbiya jarayoni uchun asosiy negiz bo‘lsa, ijodiy izlanish o‘qish va o‘qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish o‘qituvchining eng muhim kasbiy sifatlaridan ekanligini uqtiradi. Bu bilan Abdulla Avloniy o‘qituvchi faoliyatiga nisabatan akmeologik yondashuvni o‘z davri qiyofasida olg‘a suradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni akmeologik rivojlanish jarayonini yana bir e’tiborli jihati bu yuqorida ta’kidlab o‘tilgan yo‘nalishlardagi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga to‘laqonli tatbiq etishning zaruriy shart- sharoitlari majmuasining belgilanishidir. Chunki, qulay va maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik sharoit jarayondan ko‘zlangan natijaga erishishini engillashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Akmeologik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatini rivojlantirishda bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda yuqori darajada qo‘llay olishida namayon bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda ta`lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu insonning turli sohalarda maqsadli va mustaqil faoliyatini tashkil etishidir. Shunday ekan bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatini shakllantirishda motivatsion, ijtimoiy, axborotli-mazmunli, faoliyatli, didaktik omillarga alohida e’tibor qaratish maqsadga maolikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмадов, Н. Р. (2021). Суицидальное поведение подростков. Вестник интегративнойпсихологии.(журнал для психологов), 13-15.

2. Деркач А.А. Методолого-прикладные основы акмеологических исследований.- М.:1999

3. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. М.: ИЧП "Издательство Магистр", 1997. – 224с

4. Tillayeva G. Akmeologiya asoslari: o‘quv qo‘llanma /. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: «Tafakkur Bo‘stoni», 2014. —192 b.

5. Shayxova X.A. Ma'naviyat — kamolot ko‘zgusi. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagni NMIU, 2009. 115-b.